Ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish, ularni bartaraf etishda davlat nazorati bilan bir qatorda va jamoatchilik nazoratining zamonaviy elektron tizimlaridan foydalanish orqali aholi va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish, aholining salomatligini ishonchli muhofaza etish, ular yashashi va rivojlanishi uchun qulay atrof-muhitni barpo etish ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlash tizimini yanada kuchaytiradi.

Mamlakatimizda atmosfera havosiga ta'sir etuvchi sanoat korxonalari ko'payishi bilan bir qatorda transport vositalarining ham soni kun sayin ortib bormoqda. Masalan, Bosh prokuratura Toshkent viloyati va poytaxt havosini ifloslantirayotgan sanoat korxonalarini tekshirmoqda. Mas'ul tashkilotlar o'tkazgan tahlillarga ko'ra, I va II toifaga kiruvchi, atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lgan sanoat korxonalarida 2024-yilda belgilangan zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish paysalga solinmoqda. Xususan, "Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishi darjasini ortib borayotgani va "salbiy" reytinglarda yetakchi o'rnlarga chiqayotgani haqida ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan xabarlar barchada asosli tashvish va qayg'u uyg'otmoqda. Poytaxt atmosfera havosi ifloslanishiga quruq iqlim, qumli va qumloq tuproqlar kabi tabiiy omillar bilan bir qator-

da iqlim o'zgarishi, sanoat va avtotransport vositalaridan tashlamalar chiqarish hajmlari oshib borishi, e'lon qilingan moratoriy davrida ham qimmatbaho daraxtlarning noqonuniy kesilishi, shaharsozlik bosh rejalarini tasdiqlanmasdan qurilish ishlaring jadal amalga oshirilishi bevosita ta'sir ko'rsatmoqda", - deyiladi Bosh prokuratura matbuot xizmati xabarida. Prokuratura organlari ushbu holatlarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, Prezidentning tegishli farmonlari va topshiriqlari hamda sohaga oid boshqa qonun hujjalari ijrosini atmosferaga chiqarilayotgan zararli tashlamalar miqdorini kamaytirish va atmosfera havosi holtini yaxshilashga asosiy e'tiborni qaratgan holda 2024-yil sentabr oyidan boshlab respublika bo'yicha rejaviy tekshirish tadbirlari o'tkazilishini yo'lga qo'yan. Tahlillarda I va II toifaga kiruvchi, atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lgan sanoat korxonalarida 2024-yilda belgilangan zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish ishlari paysalga solinayotgani, shu jumladan, Toshkent viloyatida 27 ta korxonadan 19 tasida, Toshkent shahrida esa 31 ta korxonadan 8 tasidagina bu ishlar amalga oshirilgani ma'lum bo'ldi [4].

So'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yil larga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni doirasida barcha sohalar kabi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizing barqaror rivojlanish kafolati bo'lmoqda. Ekologik muammolarning inson xavfsizligiga ta'sirini e'tiborga olgan holda tub islohotlar amalga oshirilib, sohani rivojlantirishning mukammal tashkiliy-huquqiy asoslari barpo etildi. Xususan, 2019-yilda O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyalari qabul qilingan edi.

Shuningdek, o'sha yili 2019-2028-yillar davrida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish va 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyalari ham tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 1-dekaborda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi (COP28) nutqida ta'kidlanganidek, birinchidan, BMT ning rezolyutsiyasi asosida Orolbo'yи huddini ekologik ofat zonasidan "innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi"ga aylantirilishi hamda Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-xabini yaratishda yaqin hamkorlikka taklif etishi; ikkinchidan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozimligi, Toshkentdagagi "Yashil universitet" negizidagi "Iqlim ilmiy forumi"da davlatlarning yetakchi olim va ekspertlarining ishtiroki ta'minlanishi, Yer degradatsiyasi, suvdan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari Forum kun tartibidan joy olishi; uchinchidan, BMT bilan 2024-yili O'zbekistonda "Iqlim migratsiyasi" konferensiyasini o'tkazish niyatida ekanligi [5] jahonshumul ahamiyatga ega ishlarning yana bir bosqichidir.

Tadqiqot natijalarining tahlili

Iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va uni huquqiy takomillashtirib borish eng dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda yer yuzida iqlim o'zgarishining keskin rivojlanishi ozon qatlamining buzilishi, bioxilma-xillikning yo'qolib borishiga, turli xildagi chiqindilarning ko'payishiga, yerkarning cho'llanishi, o'rmonlarning yo'q bo'lishiga va suv resurslarining ifloslanishiga olib kelib, natijada tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mutanosiblik buzilmoqda. Zero, global iqlim, biologik, geologik va kimyoviy jarayonlar tabiiy ekotizimlar bilan uzviy bog'langan. Ulardagi bu jarayonlar kechuvining o'zgarishi boshqalariga ham salbiy ta'sir qilib, aksariyat hol-

larda birinchisiga qaraganda ikkinchilarida ushbu o'zgarishlar kuchliroq sodir bo'lishi ehtimoli bor. Bugungi kunda insoniyat tomonidan tabiatga nisbatan o'nglab bo'lmas dahshatli zARBalar berilmoqdaki, buning natijasida kelajak avlod uchun ayanchli oqibatlar va mudhish ekologik inqirozlar kelib chiqli shahar qishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida "Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak", deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida "Iqlim o'zgarishlari, ekologik bo'hronlardan Orol va ona tabiatni asrash zarurati" [6] umumbashariy muammolar sifatida alohida qayd etilgan. Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 79-maqсадida aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish; 80-maqсадida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummiliy loyihasini amalga oshirish; 81-maqсадida o'rmonlar maydonini kengaytirish dolzarb vazifa ekanligi alohida ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan barcha ekologik qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi 95-son "Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiylar texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy hujjatlar ekologik xavfsizlik-

ni ta'minlashning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ekologik xavfsizlikning ta'minlash masalasi alohida va kompleks faoliyatni talab etganidek, bu borada olimlar ham bir qator yo'naliishlarni belgilamoqdalar. Kundalik hayotda ishlataladigan terminlardan farqli o'laroq, noyuridik ilmiy adabiyotlarda ekologik xavfsizlik atamasining maxsus tushunchasi mavjud. Uning ko'pchilik mualliflar tomonidan ma'qullangan noyuridik ilmiy tushunchasi ekologiya haqidagi qomusiy lug'atda berilgan. Ushbu ta'rifga ko'ra, ekologik xavfsizlik – inson, jamiyat va atrof-muhitning eng muhim hayotiy manfaatlariga zarar yetkazuvchi xavfdan himoyalanganlik holatidir. Ushbu xavf tabiatga zararli va texnogen ta'sirlar hamda ekologik huquqbazarliklar natijasida vujudga keladi [7].

G.P. Serovning fikricha, ekologik xavfsizlik "himoyalangan tabiat obyektlari tomonidan bo'ladigan xavfdan shaxsning, aholining, hududning, sanoat va tabiat obyektlarining himoyalanganlik holatidir" [8].

Shuningdek, N.A. Geyt ko'rsatmalarida fanda ekologik xavfsizlikning tor doirada berilgan tushunchasini ham uchratishimiz mumkin, unga ko'ra ekologik xavfsizlik deganda "texnogen halokatlarning oldini olish, tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish" tushuniladi [9].

Y.E. Vinokurov tomonidan ekologik xavfsizlikka juda ixcham, lekin shu bilan birga, ilmiy asosga ega izoh berilgan. Unga ko'ra ekologik xavfsizlik – antropogen faoliyat (halokat, mudofaa va boshqalar) amalga oshirilish chog'ida ifloslangan tabiiy obyektlardan, shuningdek, tabiat hodisalari va tabiiy ofatlardan keladigan xatarlardan hayot uchun muhim ekoxavfsiz obyektlarning (shaxs, aholi, hudud) muhofaza qilinganlik holatidir [10].

Ekologik xavfsizlikning noyuridik ma'nodagi tushunchasini oddiy qilib tushuntiradigan bo'lsak, ushbu iboralarning o'zidan ko'rinib turibdiki, bu yerda u atrof tabiiy muhit (ekologiya) sifati buzilishining inson va ja-

miyatga yetkazishi mumkin bo'lgan xavf-xatardan himoyalanganligini anglatadi. Boshqa-chaga qilib aytganda, ekologik xavfsizlik – atrof tabiiy muhit (ekologiya) obyektlarining xavfli tarzda sifati buzilishining, agar shunday xavf vujudga kelgan bo'lsa, odamlarga, jamiyatga, ayrim hududlarga salbiy ta'sirining oldini olishga qaratilgan faoliyatdir.

D.J. Markovichning fikriga ko'ra, "tabiat – jamiyat" munosabatlaridagi birinchi davrda inson tabiatni o'zgartiradi va yangi "sun'iy tabiatni" yaratadi, lekin tabiatga qaram bo'ladi. Ikkinci davrda inson o'zini tabiat hukmdori hisoblab, undan cheksiz foydalanish mumkin, deb tushunadi. Bu davr o'z ichiga keyingi uch asrni oladi. Uchinchisi – hozirgi davr bo'lib, inson tabiatni shunday o'zgartiradiki, natijada bu o'zgarish nafaqat ekologik ziddiyatlarni, balki ular orqali ijtimoiy-siyosiy muammolarni keskinlashtirib yuborishi mumkin [11].

Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, demak, biz "beshinchi okean" deb ataluvchi say-yoramiz atmosferasi va uning barcha boyliklarini saqlab qolishimiz lozim. Mutaxassislarining ta'kidlashlariga ko'ra, atmosfera, okean, muz qoplamlari va muzliklarning Yer yuzasidagi hodisalari tabiiy jarayonlar qonuniyatining bir qismi bo'lib, ular global iqlim isishini ko'rsatmoqda. U kuchli issiqlik to'lqinlari, yangi shamol oqimlari, ayrim hududlarda qurg'oqchilik, boshqasida esa me'yordan ortiq yog'ingarchilik, muzliklarning erishi hamda dengiz sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Shunday ekan, ushbu masalani xalqaro hamjihatlikda hal etish o'ta muhim ahamiyatga egadir. BMTning atrof-muhit va rivojanish bo'yicha tuzilmasi – YUNISEF birinchi marotaba 1992-yilda Rio-de Janeyroda iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etgan edi. Mazkur anjuman yakunida BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilindi. Uning asosiy maqsadi atmosferaga chiqarilayotgan gaz miqdorini kamaytirish, agar ahvol shu

darajada qoladigan bo'lsa, yaqin kelajakda ekologiyaga jiddiy xavf solishidan insoniyatni ogohlantirish edi. Shundan kelib chiqib, ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish, ularni bartaraf etishda davlat nazorati bilan bir qatorda, shuningdek, jamoatchilik nazoratining zamonaviy elektron tizimlaridan foydalanish orqali aholi va kelajak avlod uchun ekologik toza hududni saqlab qolish, inson salomatligi uchun qulay sharoitlar yaratish, ekologik muvozanatni saqlash, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashning huquqiy tizimi kuchaytirilmoqda.

Mamlakatimizda atmosfera havosiga ta'sir etuvchi sanoat korxonalarining ko'payishi bilan bir qatorda transport vositalarining ham soni kun sayin ortib bormoqda. 2022-yilda atmosferaga tashlamalar miqdori 2,2 mln tonnani tashkil qilgan. Shundan 58 foizi transport vositalari, 42 foizi sanoat va ishlab chiqarish korxonalari hissasiga to'g'ri kelgan. Shu sababli, mamlakatimizning yirik va sañoati rivojlangan shaharlarida atmosfera havosiga chiqarilayotgan uglerod, azot birikmalar, metan va boshqa zararli gazlar miqdorini 2 baravarga kamaytirish ustuvor vazifa siyatida belgilandi. Shu o'rinda har yili 6,8 mln tonna maishiy, 750–850 ming tonna qurilish, 256 ming tonna sanoat va 42 ming tonna tibbiyot chiqindilari hosil bo'layotganligini ta'kidlash joiz [12].

O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Koreya Respublikasi hukumati o'rtasida iqlim o'zgarishi bo'yicha hamkorlik to'g'risida Hadli bitimi, BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi hamda boshqa xalqaro shartnomalar doirasidagi majburiyatlarning amalgamoshirilishi yuzasidan berilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qonunchilik hujjalari loyihibalarini qabul qilishda ularning atrof-muhitga ta'sirini baholash, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida normativ-huquqiy hujjalarni hamda yashil iqtisodiyot, yashil o'sish, Orolbo'yi mintaqasi, ekologik ta'lim kabi yo'nalishlarda 10 dan ortiq konsepsiya va strategiyalarning mazmun-mohiyati

aholi e'tiboriga yetkazildi. Ma'lumot o'rnida, so'nggi 4 yillikda qabul qilingan hujjatlar soni 6400 dan oshgan, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida jami 397 ta hujjat qabul qilinib, umumiy hujjatlarga nisbatan ulush 6,25 foizni tashkil etmoqda [13].

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida-gi munosabatlarni huquqiy ta'minlashda xorijiy mamlakatlarning qonunchilik tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha Fransiyaning Ekologiya kodeksi [14] hamda Kot-d'Ivuar Respublikasida 1996-yil 3-oktabrda qabul qilinib, 6 ta bo'lim va 113 ta moddadan tashkil topgan Atrof-muhit kodeksi [15] va boshqa shu kabi qonun hujjatlarning ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishda ahamiyati katta.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik qonunchilikni kodifikatsiyalash bo'yicha Shvetsiya davlati ham jahonda muayyan tajribaga ega. Xususan, Shvetsiyada qabul qilin-gan Atrof-muhit kodeksi 1999-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. U shved mutaxassislari tomonidan atrof tabiiy muhit to'g'risidagi qonunchilik doirasini cheklangan darajada belgilab beradigan yaxlit zamonaviy hujjat sifatida tavsiflanadi [16].

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonning ekologik xavfsizlik sohasida olib borayotgan siyosati respublika taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib, xalqaro andozalarga mos va zamonaviy talablarga javob beradigan sifat ko'rsatkichlariga ega, deb baholash mumkin.

Xulosalar

Globallashuv jarayonida dunyo va mintaqadagi ekologik holat shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kundagi iqlim o'zgarishlari sharoiti-da ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlashga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Fikrimizcha, buning uchun, birinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish va suv resurslaridan oqilona foydalanishda zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan yanada kengroq foydalanish

va qo'llash; ikkinchidan, ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlash masalasida davlatlararo hamkorlikni yanada kengroq yo'lga qo'yish va tegishli xalqaro huquqiy hujjatlarni umuminsoniy manfaatlar nuqtayi nazaridan qabul qilish; uchinchidan, ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlash borasida xalqaro normalar va tajribalarni hayotga yana-da kengroq tatbiq etish; to'rtinchidan, ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlash sohasida O'zbekiston Ekologik partiyasi bilan o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirib, transche-garaviy ekologik muammolarni ijobiy hal qilish sohasida ham mamlakatimiz ekologik manfaati va ekologik xavfsizligini ta'minlash yo'lida e'tiborli ijobiy ishlarni amalgalash; beshinchidan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida xalqaro standart va tajribalarni keng qo'llab, xalqaro ekologiya huquqi prinsiplari hamda xalqaro transche-garaviy xususiyatlar, atmosfera havosini xalqaro muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi va ozon qatlamining buzilishi holatlaridagi sabab hamda ekologik zararni qoplash holatlari inobatga olinib, "Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risida"gi alohida qonunning qabul qilinishi ham maqsadga muvofiqdir.

1994-yilda BMT Bosh Assambleyasi 16-sentabrni Xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni deb e'lon qilgan. Ushbu kunda davlatlar Montreal protokolida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarga muvofiq faoliyat olib borishlari tavsija etiladi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, ozon qatlamining yemirilishiga asosiy sabab sifatida sovitish texnikalari, tarkibida galogenlar bo'lgan kimyoviy muddalarning sanoat va qurilish sohasida keng qo'llanishi ko'rsatilgan. Bu borada yurtimizda ham xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ilg'or, samarali vositalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish or-qali ozon qatlamiga yetkazilayotgan zararlar ni kamaytirishga qaratilgan loyihalar amalgalash oshirilayotganini hamda yangi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Mamlakatimiz atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida bir qator xalqaro konvensiyalar va tegishli rivojlanish protokollari ratifikatsiyalariga qo'shildi. Xususan, Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi (18.05.1993-y.); Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Montreal protokoli (18.05.1993-y.); Ozon qatlamini buzuvchi moddalarga doir Montreal protokoliga Londonda qilingan tuzatishni kiritish (01.05.1998-y.); Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Montreal protokoliga Kopengagen o'zgartirishi (01.05.1998-y.) va boshqalar.

E'tiborli tomoni shundaki, ozon qatlami Yerni ultrabinafsha nurlanishidan himoya qiladigan yupqa gaz qalqonidir. Agar bu qatlam yemirilsa, butun biosfera, shu jumladan, insonlar uchun jiddiy xavf paydo bo'ladi. Ultrabinafsha nurlar ta'sirida teri saratoni, ko'z kasalliklari va boshqa jiddiy muammolar ke-lib chiqishi mumkin.

Mazkur hujjatlar talablarini bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-yanvardagi "Ozonni buzuvchi moddalar va tarkibida ular bo'lgan mahsulotlarning O'zbekiston Respublikasiga importini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 17-son qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, ozonni buzuvchi moddalar va tarkibida ular bo'lgan mahsulotlarning O'zbekiston Respublikasiga importi va O'zbekiston Respublikasidan eksporti davlat tomonidan tartibga solinishi ta'minlanib kelmoqda.

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini, Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi majburiyatlarini bajarish, shuningdek, ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida 2021-yil 9-martda Vazirlar Mahkamasining 126-son qarori ham qabul qilindi. Mazkur qaror bilan Ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish

bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi. Yuqorida-gilardan ko'rilib turibdiki, "Ozon qatlamini himoya qilish" alohida ahamiyatga ega bo'lib, u boshqa tabiat obyektlari va atrof-muhitning o'zaro mutanosibligini saqlaydi, inson hayotini barqarorlashtirishga katta yordam beradi.

Shunday ekan, bugungi kunda global hamkorlik, sayyoramizdagi hayot va kelajak avlodlarni himoya qilishning eng muhim sharti bo'lib, "Ozon qatlamini muhofaza qilish" to'g'risidagi alohida qonunni qabul qilish o'ta muhimdir.

Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va uni huquqiy takomillashtirib borish jarayonida O'zbekistonda jamoatchilik ekologik nazorati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

- davlat boshqaruvi organlarida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashlari tarkibiga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidan ekspertlarni ham kiritish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganishning so'rov texnologiyalarini muntazam o'tkazib borish va o'tkazishda ilg'or xorij tajribalarini qo'llash;

- eng samarali jamoatchilik nazorati shakllaridan bo'lgan ekovolontyor (eko-ko'ngilli)lar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish;

- mahalliy NNTlar bilan hamkorlik qilish orqali fuqarolik jamiyatni vakillarining ommaviy axborot vositalari bilan bирgalikda O'zbekistonda suvdan foydalanish, suvni tejash va jamoatchilik nazorati masalalari bo'yicha xabardorligini oshirish;

- mahallalardagi har bir xonodon egalari ning ekologik huquqiy savodxonligi, hovlisi-da parvarishlayotgan daraxt ko'chatlari, oila a'zolarining atrof-muhit, tabiatga munosabati baholash tizimini yo'lga qo'yish;

- mahallalar tizimida Ekologik partiya bilan hamkorlikda "Ekohudud" an'anaviy tanlovi joriy etish – unda "Eng yaxshi ekoxonadan", "Eng yaxshi ekomahalla", "Eng yaxshi ekotuman", "Eng yaxshi ekoviloyat" nominat-

siyalari orqali g’oliblarni rag’batlantirib borish;

– yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablari ni kengroq tushuntirish va unga amal qilishni ta’minalash, fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi

sohasidagi huquq va manfaatlarini, aholining quay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish ham ekologik xavfsizlik muammolaring oldini olishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Fayziyev Sh.X. Pravovye voprosy ekologicheskoy bezopasnosti v sel’skom khozyaystve [Legal issues of environmental safety in agriculture]. Tashkent, TSIL Publ., 1995, p. 171.
2. Usmonov M.A. Xavfsizlik va mudofaani ta’minalash bo'yicha davlat funksiyasining nazariy va huquqiy asoslari [Theoretical and legal foundations of the state function in ensuring security and defense]. Tashkent, TSIL Publ., 2010, p. 30.
3. Jo’rayev Sh.Yu. O’zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minalashning nazariy-huquqiy masalalari [Theoretical and legal issues of ensuring environmental safety in Uzbekistan]. Tashkent, 2012, p. 25.
4. Sanoat korxonalari chang-gaz tozalash uskunalarini o’rnatishni paysalga solmoqda Bosh prokuratura [Industrial enterprises delay installation of dust and gas purification equipment – Prosecutor General’s Office]. Available at: <https://kun.uz/kr/news/2024/10/24/sanoat-korxonalari-chang-gaz-tozalash-uskunalarini-ornatishni-paysalga-solmoqda-bosh-prokuratura>
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning Iqlim o’zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi (COP28) nutqi [Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the UN Climate Change Conference]. 2023. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/6897>
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi [New Uzbekistan Strategy]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2021, p. 464.
7. Ekologiya. Entsiklopedicheskiy slovar’ [Ecology. Encyclopedic Dictionary]. Moscow, Norma Publ., 2001, pp. 12–13.
8. Serov G.P. Pravovoye regulirovaniye ekologicheskoy bezopasnosti pri osushhestvlenii promyshlennoy i inykh vidov rastitel’nosti [Legal regulation of environmental safety in the implementation of industrial and other types of vegetation]. Moscow, Os'-89 Publ., 1998, p. 3.
9. Geyt N.A. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Moscow, TK Velbi, Prospekt Publ., 2008, p. 320.
10. Obosnovaniye predlozheniy po sovershenstvovaniyu zakonodatel’stva v sfere obespecheniya ekologicheskoy bezopasnosti naseleniya i territorii RF [Justification of proposals for improving legislation in the field of ensuring environmental safety of the population and the territory of the Russian Federation]. Moscow, 1997, p. 49.
11. Markovich D.J. Sotsial’naya ekologiya [Social ecology]. Moscow, Enlightenment Publ., 1991.
12. Sobirov O’. Ekologik xavfsizlik-insoniyat kelajagiga daxldor masala [Ecological security is an issue that concerns the future of humanity]. Available at: <https://www.ekogazeta.uz/xabarlar.7194>
13. O’zbekistonning ekologik siyosati haqida taqdimot o’tkazildi [A presentation was held on Uzbekistan’s environmental policy]. Avialable at: <https://kun.uz/news/2023/12/08/cop28da-ozbekistonning-ekologik-siyosati-haqida-taqdimot-otkazildi>
14. Code de l’Environnement Republique de France. Version consolidée au 15 avril 2010 [Environmental Code of the Republic of France. Consolidated version as of April 15, 2010]. Available at: www.imdr.eu/v2/extranet/cie-lettre32-envir.htm
15. Code de l’Environnement Republique de Cote D’ivoire.Loi n° 96-766 du 3 octobre 1996 [Environmental Code of the Republic of Ivory Coast]. Law No. 96-766 of October 3, 1996.
16. The Swedish Environmental Code. A resume of the text of the Swedish Environmental Code. Available at: www.sweden.gov.se

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 6-SON

VOLUME 4 / ISSUE 6 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6.